



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING TAYANCH KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA INDIVIDUALLIGINI TA‘MINLASH IMKONIYATLARI

Davletov E. Yu.

*“Ma‘mun universiteti” NTM “Umumkasbiy fanlar”
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

Tayanch so‘z: tayanch kompetensiyalar, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, individuallik, hulq-atvor, iqtidor, layoqat, pedagogik hamkorlik, ijodkorlik, faoliyat, izlanish, kasbiy tafakkur, didaktik vositalar.

Ключевые слова: основные компетенции, учащиеся начальных классов, индивидуальность, темперамент, достоинство, педагогическое сотрудничество, творчество, деятельность, исследование, профессиональное мышление, дидактические средства.

Key words: basic competences, pupils of primary classes, individuality, temperament, dignity, pedagogical cooperation, creativity, activity, research, professional thinking, didactic means.

Maktab ta‘limini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[1]da o‘quv tarbiya jarayonida o‘quvchilarning individualligini ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratilgan. Chunki har bir shaxs o‘zining boshqalarga o‘xshamaydigan betakror xususiyatlari va layoqatlariga ega. Shuning uchun ham o‘quvchilarga bilimlarni frontal tarzda taqdim etish tizimidan asta sekin voz kechib ularning individual layoqatlarini ro‘yobga chiqarishga imkon beradigan modulli o‘qitish tizimiga o‘tish, tayanch kompetensiyalarni o‘zlashtirish natijasida individual ta‘lim traektoriyalarini tanlashlariga erishish, o‘qituvchining kasbiy faoliyati, pedagogik tafakkurini ushbu maqsadga yo‘naltirish alohida ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, so‘nggi vaqtlarda pedagoglarni ortiqcha yuklamalardan ozod qilish, butun kuch-g‘ayratini o‘quvchilarga bilim berish va ularning iqtidorlarini ro‘yobga chiqarishga safarbar etish sohasida katta ishlar amalga oshirildi.

Oliy pedagogik ta‘lim va malaka oshirish jarayonida bo‘lajak pedagoglar va o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, ularda kreativ dunyoqarashni shakllantirish tizimini joriy qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Pedagogika



sohasidagi tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlarini pedagoglarda kreativ dunyoqarashni shakllantirishga qaratish orqali o‘quvchilarning individual layoqatlarini ro‘yobga chiqarish mexanizmlarini ishlab chiqish xalqaro tajribalardan saralagan holda maqsadga muvofiq tarzda foydalanish, bu jarayonda O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimining o‘ziga xos xususiyatlarini va xalqning milliy mentaliteti[2]ni hisobga olish zaruriyati kuchaymoqda.

Ilg‘or o‘qitish metodlari tajribalar va novatorlik yondashuvlarini qo‘llashda ajdodlarimiz merosiga murojaat qilish ham alohida ahamiyatga ega. Chunki ota-bobolarimiz yosh avlodning layoqatlarini shakllantirishda ularning individualligiga e’tibor qaratganlar.

Pedagogika ensiklopediyasida “individuallik – 1) muayyan hodisa va narsa, shaxs va jonivorning o‘zigagina xos, betakror, xususiy belgilari; 2) inson ruhiyatining o‘ziga xosligi, betakrorligini ifodalovchi atama” sifatida talqin qilingan[3; 84-b.].

Individuallik tushunchasi doirasida shaxsning integratsiyalashgan o‘ziga xosligi tushuniladi. Individuallik deganda shaxsning layoqatlari, o‘zligi, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishini ta’minlaydigan imkoniyatlari, turmush tarzi va o‘ziga nisbatan ijodiy munosabatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar, ijtimoiy va tabiiy muhitni o‘rganishga bo‘lgan intilishlari tushuniladi. Ushbu xususiyatlar har bir shaxsning umumiy va o‘ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

Har bir shaxs o‘ziga xos betakror. Shuning uchun ham o‘z rivojlanishining individual yo‘liga ega. Pedagoglar va ota-onalarning asosiy vazifalaridan biri o‘quvchilarning o‘z xususiyatlarini to‘liq namoyon qilishlariga sharoit yaratishdan iborat.

Ma’lumki, maktab ta’limi o‘quvchining quvonchlari, muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligining asosiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun ham maktab va unda faoliyat ko‘rsatuvchi pedagoglar o‘quvchilarning rivojlanishlari uchun asosiy omil vazifasini o‘taydilar. O‘quvchi o‘z kundalik hayotining katta qismini maktabda o‘tkazadi. Agar o‘quvchilar maktabda muvaffaqiyat qozonsalar, ularda tayanch hayotiy kompetensiyalar samarali shakllanib, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga erishishlariga asos bo‘ladi. Buning uchun o‘qituvchilar, o‘quvchilar va ota-onalar uzoq muddat davomida qattiq mehnat qilishlari kerak. Shuning uchun ham har bir o‘quvchi muvaffaqiyatga erishish maqsadida mehnat qilishi, ushbu jarayonda duch keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi muhim hisoblanadi.

Shunisi ayonki, tabiat ta’lim-tarbiyaga nisbatan shaxsga kuchliroq ta’sir etuvchi omildir. Shuning uchun ham tabiat ta’limning asosini tashkil etadi. Maktab ostonasiga qadam qo‘ygan har bir o‘quvchida o‘ziga xos tabiiy iqtidor



mavjud. Ta'limning asosiy vazifalaridan biri mana shu iqtidorni pedagogik faoliyat va didaktik vositalar uyg'unligida ro'yobga chiqarishdan iborat. O'qituvchilar o'quvchilarda mavjud bo'lgan iqtidorni tarbiyalashlari va ularda etishmaydigan faoliyat tajribasini shakllantira olishlari muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham boshlang'ich sinf o'qituvchisining pedagogik faoliyati o'ta murakkab, mas'uliyat doirasi keng, katta mehnat va kuch sarflashni talab qiladigan xodisadir. Shu bilan bir qatorda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlash juda maroqli va qiziqarli. Bu jarayonda dastlab o'quvchilarda muloqot kompetensiyasi shakllanadi. Mazkur muloqot jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida pedagogik hamkorlik muhiti vujudga keladi. Hamkorlik jarayonida o'quvchilarda o'z-o'zini namoyon qilish ko'nikmasi shakllantiriladi. Bu esa ularning o'ziga xos layoqatlarini ro'yobga chiqarish uchun qulay vaziyatni vujudga keltiradi.

O'quvchilarning individual xususiyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat rejali tarzda amalga oshirilib, quyidagi muammolarga yechim topishga yo'naltiriladi:

- o'quvchilarning intellektual, axloqiy, kommunikativ, estetik va jismoniy layoqatlarini namoyon qilishlariga ko'maklashish;
- kundalik hayotiy faoliyat davomida o'z iqtidorlarini va ijodkorliklarini namoyon qilishlariga yordam berish;
- o'quvchining o'z-o'zini anglashga intilishini qo'llab-quvvatlash kabilar.

Ta'lim-tarbiyaviy faoliyatning mazmuni fidoiylilik, fuqarolik va axloqiy tarbiya yo'nalishlarini mujassamlashtiradi. Shuningdek, ularda xulq-atvor madaniyati, ekologik faoliyat ko'nikmalari, o'z-o'ziga xizmat qilish, ijodkorlikni shakllantirishga ham yo'naltiriladi.

Individuallikning asosini o'quvchilarda o'zi va kundalik turmush tarziga nisbatan ijodiy munosabat tajribasiga ega bo'lish tashkil etadi. Ushbu tajriba hayotiy tayanch kompetensiyalar orqali namoyon bo'ladi. Aynan mazkur kompetensiyalar shaxs faoliyati va tafakkurining o'ziga xos uslubi, xulq-atvorning individual shakli va yo'llarini tanlash, atrofdagilarga nisbatan munosabat usullarini o'zlashtirishga asos bo'ladi.

Individuallikning tarkibiy qismlari sifatida shaxsning iqtidori va layoqatlari namoyon bo'ladi. Uning namoyon bo'lishi asosida muayyan o'quvchining individualligi haqida fikr yuritish mumkin. Xuddi shu iqtidor va layoqatlar o'quvchining qiziqishlari va mashg'ulotlari sohasini belgilaydi. Tayanch kompetensiyalarning sifati ham o'quvchilarning qiziqishlari sohasi bilan bevosita bog'liq. Muayyan faoliyatga nibatan barqaror qiziqish va ushbu



faoliyatda o'z layoqatlarini namoyon etish shaxsning o'ziga xos uslubini belgilab, hayotiy faolyaitining betakrorligini ta'minlaydi.

Mayllar va layoqatlar individuallikning namoyon bo'lishi va rivojlanishiga asos bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining muhim vazifalaridan biri har bir o'quvchining o'ziga xos betakror jihatlarini ilg'ay va aniqlay olishdan iborat. Bu individuallikning asosi bo'lib, muayyan yoshdagi o'quvchining muvaffaqiyatlari va faoliyat uslubini belgilaydi. Ushbu muvaffaqiyat o'quvchidagi tabiiy iqtidorning yorqin namoyon bo'lishiga asos yaratadi. Har bir shaxsda ijtimoiy-madaniy tajriba mavjud bo'lib, ushbu tajriba o'zida bilim, ko'nikma, malaka va tayanch kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Ushbu bilim ko'nikmalarning asosini shaxsning o'zini anglashi, namoyon qilishi va faoliyatini tashkil etishi belgilaydi. Ushbu tajribaning nechog'li boyligi o'quvchining o'ziga xosligi va individualligini ko'rsatadi.

Navbatdagi yo'nalish shaxsning axloqiy yo'nalganligidir. U jamiyatda qaror topgan ma'naviy-axloqiy qadriyatlar bilan bog'liq holda shakllanadi.

Muhim komponentlardan yana biri shaxsning ijodiy faolligidir. Ijodkorlik mavjud bo'lmasa, shaxsning individualligi ifodalanmaydi. Bunday shaxslar umumiy jihatlarga ega bo'lib, ularning mavjudligini farqlash murakkabdir. O'qituvchi shaxsning individualligini aniqlash va namoyon bo'lishiga ko'maklashish uchun kreativ kasbiy faoliyat tajribasiga ega bo'lishi lozim. O'quvchilarni kundalik hayotiy faoliyatga tayyorlash, ularning individualligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni kundalik faoliyatga tayyorlash kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil qilib, maktabdagi o'quv-tarbiya jarayoni aynan shu maqsadga yo'naltiriladi. O'quvchilarga umuminsoniy madaniyat boylıkları va tarixiy tajribalarni taqdim etish orqali ularni rivojlantirish va ijodiy faollikka undashga yo'naltirilgan faoliyat amalga oshiriladi. Mazkur jarayonda o'quvchining faoliyati tarkib topadi.

O'quvchilarning kundalik hayotiy faoliyatini shakllantirishda oila ham muhim o'rin egallaydi. Buning uchun ota-onalar o'quvchilarda zarur kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida doimiy izlanishlari lozim. Chunki oila o'quvchilarda kundalik hayotiy faoliyatni shakllantirishda juda katta intellektual imkoniyatlarga ega. O'qituvchining muhim vazifalaridan biri oila bilan o'quv jarayoni aloqadorligini ta'minlash, o'quvchilarning bo'sh vaqtini ham hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishga muvaffaqiyatli yo'naltirishdan iborat. Bunday yondashuv o'quvchilarda kundalik hayotiy tajribani shakllantirish bilan bir qatorda ularning salomatligini mustahkamlab,



aqlini charxlaydi. O‘z iqtidorlarini namoyon qilishlari uchun qulay pedagogik vaziyatni vujudga keltirishga hizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PF-5712-sonli Farmoni. <https://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son qarori. <https://lex.uz>
3. Педагогика: энциклопедия. II жилд. жамоа // Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедия-си» Давлат илмий нашриёти, 2015. 376 бет.
4. Davletov E. Y. The role of basic and science competences in supporting pupils’ maturity //Central Asian Problems of Modern Science and Education. – 2018. – T. 3. – №. 3. – С. 208-211.
5. Davletov E.Y. O‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirish dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. Special Issue 5. – С. 377-382.
6. Davletov E.Y. Social-Pedagogical and Psychological Aspects of Forming Initial Classes Students' Basic Competences. Eastern European Scientific Journal, 2018, No. 5, pp. 290-294.
7. Davletov E.Y. Methods and Factors of Development of Students' Information-Communicational Competences during Math Classes. Eastern European Scientific Journal, 2018, No. 1, pp. 36-39.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolada tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining individualligini ta‘minlash imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. SHuningdek, maqolada o‘qituvchi faoliyati, uni demokratlashtirish yo‘nalishlari ko‘rsatilgan, xalqaro tajribalardan saralab foydalanish, o‘quvchi iqtidori, individualligining komponentlari, hayotiy tayanch kompetensiyalar bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье было высказано представление о возможностях обеспечения индивидуальности младших школьников в процессе формирования базовых компетенций. В статье также показана деятельность педагога, описаны направления ее демократизации, использование сортировки из международного опыта, читателя, компоненты индивидуальности, основы жизнедеятельности.

SUMMARY

In this article, an idea was made about the possibilities of ensuring the individuality of Primary School students in the process of formation of base competences. The article also shows the activities of the teacher, the directions of its democratization, the use of sorting from international experiences, the reader, the components of individuality, the base of life are described in the article.